



“TASDIQLAYMAN”
Iqtisodiyot va moliya
vaziri o‘rinbosari

G. Raximova

2024-yil “23” iyul

Iqtisodiyot va moliya vazirligining O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar
to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish yuzasidan
o‘tkazilgan yig‘ilish
BAYONI

2024-yil 23-iyul

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

– G. X. Raximova – Iqtisodiyot va moliya vaziri
o‘rinbosari.

Qatnashuvchilar:

– Iqtisodiyot va moliya vazirligining markaziy apparati
mustaqil bo‘linmalari rahbarlari, vazirlik huzuridagi
respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik
tasarrufidagi tashkilotlarning sohaga mas’ul xodimlari.

Ishtirok etganlar:

– Iqtisodiyot va moliya vazirligining hududiy
bo‘linmalari mas’ul xodimlari “ZOOM” platformasi
orqali (onlayn tarzda).

Kun tartibi:

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida O‘zbekiston Respublikasining
“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish
to‘g‘risida.

(G. Raximova, F. Berdiyev, B. Bobokeldiyev, G. Raximova)

So‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarni isloh qilish bo‘yicha vazifalarni samarali amalga oshirishda korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini tizimli tashkil etish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratishga qaratilgan islohotlar muvaffaqiyatining asosiy mezonlaridan biriga aylanib bormoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining mas’uliyati va ochiqqligini kuchaytirish, axborot texnologiyalarini joriy etish va fuqarolik jamiyati

institutlarini keng jalb etish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va boshqa chora-tadbirlarga qaratilgan 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Barchaga ma'lumki, joriy yil 5-iyun kuni **O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni** rasmiy e'lon qilindi va rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran olti oy o'tgach kuchga kirishi belgilandi. Shunga muvofiq, mazkur Qonun 2024-yil 6-dekabrda kuchga kiradi.

Mazkur qonun qabul qilingunga qadar manfaatlar to'qnashuvining **oldini olish mexanizmlari**, bunday holat yuzaga kelganda ko'riladigan **choralar**, tegishli tuzilmalar **vakolatlari, huquq va majburiyatlarini** belgilovchi qonun mavjud emas edi.

Misol uchun, **Italiya, Kanada, Chexiya, Gruziya, Latviya va Qirg'iziston** kabi mamlakatlarda bu masalada **alohida qonunlar** qabul qilingan.

Ushbu Qonun bilan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlar tartibga solinadi, shuningdek, manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi axborotni oshkor etishga va manfaatlar to'qnashuvini aniqlashga doir choralar, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha ko'rilgan choralarni ko'rib chiqish va tekshirish tartibi, manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik belgilandi.

Xususan, **Qonunda quyidagilar belgilandi:**

1.1. Fuqaroning shaxsiy manfaatdorligi uning davlat tashkilotidagi **xizmat vazifalarini xolis bajarishiga ta'sir qilishi** mumkin bo'lgan holat **manfaatlar to'qnashuvi** hisoblanishi nazarda tutildi.

(masalan, xodimning o'zi ishlayotgan davlat tashkiloti nazoratidagi tadbirkorlik subyekti **aksiyalariga egalik qilishi**;

xodimning bevosita bo'ysunuviga **yaqin qarindoshi ishga qabul qilinishi**;

yaqin qarindoshiga tegishli masala bo'yicha **qaror qabul qilishda xodimning ishtirok etishi** va boshq.)

1.2. Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganda, quyidagi choralardan biri ko'rilishi belgilanmoqda:

yaqin qarindoshni **boshqa rahbar bo'ysunuviga o'tkazish**;

xodimni manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan **kollegial organ tarkibidan** ixtiyoriy ravishda o'zini o'zi rad etishi orqali yoki majburan chetlashtirish, axborot va **hujjatlardan foydalanishiga cheklov belgilash**;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining **yakka tartibda qarorlar qabul qilishiga doir vakolatlari**ni qonunchilikka muvofiq amalga oshirishi **ustidan kollegial nazoratni ta'minlash**;

xodim tomonidan o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organining yoki boshqa tashkilotning manfaatlariga zid bo'lgan shaxsiy manfaatdorligidan voz kechishi;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining shaxsiy manfaatdorligini bartaraf etish choralarini ko'rish mumkin bo'lmagan taqdirda, **xodimning roziligi asosida uni avvalgi lavozimiga teng boshqa lavozimga o'tkazish** yoki **mehnat shartnomasini (kontraktni) umumiy asoslarda bekor qilish**.

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha choralar davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining roziligi bilan ko'rilishi kerak.

Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda **qabul qilingan qaror** yoki **tuzilgan bitim sud tartibida haqiqiy emas deb topiladi**, olingan foyda esa, **davlat daromadiga o'tkaziladi**.

1.3. Manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va bunday vaziyatning oldini olishga qaratilgan **2 turdagi mexanizm** belgilanmoqda:

a) manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan har bir holatda **xodim** yoki **uning yaqin qarindoshi** davlat tashkiloti rahbari yoxud komplayens nazorat tuzilmasi yoki kadrlar bo'linmasiga **xabar berishga majbur ekani** nazarda tutildi.

Shu sababli, Qonun bilan **Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda** davlat tashkiloti **mansabdor shaxs** yoki **xodimi** manfaatlar to'qnashuvi haqida **xabar bermagani** uchun **1,7 mln** so'mgacha (takroran bo'lsa – **3,4 mln** so'mgacha), mansabdor shaxsga ma'lum bo'lib qolgan, manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan mavjud yoki ehtimoliy **manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko'rmagani** uchun **3,4 mln** so'mgacha (takroran bo'lsa – **5,1 mln** so'mgacha) **ma'muriy jarimaga** tortilishi ko'rsatilmoqda;

b) komplayens nazorat tuzilmasi yoki kadrlar bo'linmasi tomonidan manfaatlar to'qnashuvini aniqlash quyidagi manbalardan olingan **ma'lumotlarni** o'rganish orqali amalga oshiriladi:

davlat xaridi takliflari, komissiya bayonnomalari, shartnomalar;

tijorat tashkilotlarining **affillangan shaxslari ro'yxatlari**;

jismoniy va yuridik shaxslar **murojaatlari**;

davlat tashkiloti xodimi yoki yaqin qarindoshlarining ehtimoliy **manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyasi**;

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish moduli, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi **ma'lumotlari**;

maxsus vakolatli davlat organi tomonidan o'tkazilgan o'rganish natijalari bo'yicha kiritilgan **taqdimnoma**.

1.4. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishda **maxsus vakolatli davlat organi** etib belgilangan.

Bundan tashqari, **Fuqarolik kodeksiga** o'zgartirish kiritilib, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan holda qabul qilingan qaror va tuzilgan bitim **sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi**, olingan foyda **davlat daromadiga o'tkazilishi** belgilangan.

Shuningdek, Qonun bilan **xodimlarga** quyidagi **cheklovlarga rioya qilinishi** belgilangan:

xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish orqali shaxsiy naf olishga;

manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotni oshkor etish chog'ida ma'lumotlarni yashirishga yoxud bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborot taqdim etishga;

biri boshqasiga bo'ysunuvchi yoki biri boshqasining nazoratidagi tashkilotlarda o'rindoshlik bo'yicha ishlashga, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

tijorat tashkilotlarining ta'sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo'lishga, bundan aksiyadorlik jamiyatlarining erkin muomalada bo'lgan aksiyalarining o'n foizigacha egalik qilish hollari mustasno.

o'zi mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilotning nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilishga, shuningdek, ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a'zosi bo'lishga, bundan O'zbekiston Respublikasi qonunlarida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida nazarda tutilgan yoki bu faoliyat qonunchilikka muvofiq lavozim majburiyatlari hisoblanadigan hollar mustasno.

o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda o'ziga taalluqli bo'lgan ishlarni ko'rib chiqishda yoki o'ziga aloqador shaxslarga taalluqli bo'lgan ishlarni ko'rib chiqishda vakil sifatida ishtirok etishga, agar u qonunchilikka muvofiq qonuniy vakil bo'lmasa;

o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan tashkilotning mol-mulkini sotib olishda yoki ijaraga olishda o'zi ishtirok etishga haqli emas. Shuningdek, ushbu jarayonda davlat organi yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar ham ishtirok eta olmaydi.

Shuningdek, davlat organining yoki boshqa tashkilotning o'zi bilan **mehnat shartnomasi tugatilgan** yoki **xizmatdan bo'shatilgan** xodimi **ikki yil ichida** oxirgi ish joyida o'zi bevosita yoki bilvosita nazoratni amalga oshirgan tashkilotlar yoki ularning tarkibiy bo'linmalari tomonidan ishga ushbu xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirgan tashkilotlarning **korruptsiyaga qarshi nazorat bo'linmasi vazifasini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning xulosasiga** asosan qabul qilinadi.

Qonunga ko'ra, davlat organining yoki boshqa tashkilotning **rahbar xodimi** hamda **maxsus bo'linmaning rahbari** manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish uchun **mas'ul hisoblanadi**.

2. Qonun ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 5-iyundagi **PQ-210-sonli** qarori qabul qilindi.

Qarorda Qonun talablarini joriy etishda xodimlarning huquq va manfaatlariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, shuningdek, manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga oid normalarning mazmun-mohiyatini xodimlar va keng jamoatchilikka tushuntirish orqali mazkur Qonunni amalga kiritishga har tomonlama va puxta tayyorgarlik ko'rish choralari belgilangan.

Shundan kelib chiqib, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar hamda barcha hududiy bo'linmalarning rahbarlari o'zi

rahbarlik qilayotgan tashkilotda Qonun kuchga kirgunicha va kuchga kirganidan keyingi talab va mexanizmlarini ijro intizomiga rioya qilgan holda belgilangan muddatlarda samarali joriy etishi lozim bo'ladi.

Qarorda va ushbu qaror bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"da Qonun kuchga kirguniga qadar unda belgilangan talablar va mexanizmlarning amaliyotda ishlashi bilan bog'liq masalalar, jumladan, davlat organlari va tashkilotlarida:

manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rish;

xodimlar tomonidan ularning faoliyatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha cheklovlarga rioya etilishini o'rganish, jumladan, o'rindoshlik asosida ishlash, tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish kabi holatlarni aniqlash va bartaraf etish;

axborot tizimlari, savdo platformalari va boshqa dasturiy ta'minotlarni Qonun talablariga muvofiqlashtirish, ularni takomillashtirish choralarini ko'rish belgilangan.

Mazkur vazifalarning vazirlik tizimida ijrosini ta'minlash uchun vazirimiz birinchi o'rinbosari tomonidan joriy yil 27-iyunda nazorat rejasi tasdiqlandi va mas'ul ijrochilar belgilandi.

Vazirlik tizimidagi barcha tashkilotlar manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasida quyidagi vazifalarning bajarilishini ta'minlashi lozim bo'ladi:

xodimlar tomonidan mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabardor qilish tizimini tashkil etish;

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyaning va mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnomaning belgilangan shaklini o'zining rasmiy veb-saytlariga joylashtirish;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda qabul qilingan qarorlarni belgilangan tartibda o'zgartirishi yoki bekor qilishi;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda tuzilgan bitimlarni o'zgartirishi yoki bekor qilishi yoxud bunday bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risida belgilangan tartibda sudga da'volar bilan murojaat etishi;

odob-axloq komissiyalarining va maxsus bo'linmalarning manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish bo'yicha faoliyatini tashkil etishi;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha ichki idoraviy tartibni belgilashi;

aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha xizmat tekshiruvining xolisona tashkil etilishini va uning natijalari odob-axloq komissiyalari tomonidan ko'rib chiqilishini ta'minlashi;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olishda o'rnak bo'layotgan xodimlarni rag'batlantirish choralarini ko'rish;

manfaatlar to'qnashuvi natijasida yetkazilgan zararining o'zni qoplanishini ta'minlash choralarini ko'rish lozim bo'ladi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-210-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlik huzuridagi **respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari** va **vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar** hamda **barcha hududiy bo'linmalarning rahbarlari** o'zi rahbarlik qilayotgan tashkilotda Qonun kuchga kirgunicha va kuchga kirganidan keyingi **talab va mexanizmlarning** ijro intizomiga rioya qilgan holda **belgilangan muddatlarda samarali joriy etilishini ta'minlasin.**

3. Vazirlik **markaziy apparati departamentlari** va **mustaqil boshqarmalari** hamda **bo'limlari rahbarlari**, shuningdek, **hududiy bo'linmalar rahbarlari** Qonun va 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-sonli Prezident qarori ijrosi bilan bog'liq ma'lumotlarning alohida nazoratga olgan holda belgilangan muddatlarda va sifatli taqdim etilishini ta'minlasin.

4. Vazirlik markaziy apparatining Muvofiqlashtirish va axborot-tahlil, Davlat aktivlarini xususiylashtirish va transformatsiya qilish, Soliq-bojxona siyosati va daromadlar prognozi, Qishloq xo'jaligidagi islohotlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, Hududlarni kompleks iqtisodiy rivojlantirish, Davlat hokimiyati, boshqaruv, sud va prokuratura organlari faoliyatini moliyaviy ta'minlash, Davlat rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish va infratuzilma jamg'armalarini boshqarish sohasida budjet siyosati, Sanoat siyosatini amalga oshirish, Davlat qarzi va Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish departamentlari hamda Strategik rejalashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va loyihalarni samarali joylashtirish boshqarmasiga, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi tomonidan so'ralgan tegishli **ma'lumotlarning** belgilangan muddatda va sifatli taqdim etilishini **ta'minlamagani ko'rsatib o'tilsin.**

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi (F. Berdiyev) "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun talablaridan kelib chiqib, **ikki hafta muddatda** vazirlik tizimidagi barcha xodimlar bilishi hamda amal qilishi zarur normalarni qamrab olgan elektron taqdimot ishlab chiqsin hamda barcha xodimlarga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Tashkiliy ishlar va ijro intizomi boshqarmasi (F. Xamdamov) mazkur yig'ilish bayoni vazirlik markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari, vazirlik huzuridagi tashkilotlar va hududiy bo'linmalarga yetkazilishini ta'minlasin.

Yig'ilish kotibi

O. Samadov